

THE IMPORTANCE OF TECHNICAL MOVEMENTS IN TENNIS

Shoolim Israilov Shaakromovich

Department of Badminton, Tennis Theory and Methodology,
Uzbek State University of Physical Culture and Sports.

ANNOTATION

This article provides information on the importance of technical action in the game of tennis and the rules of the game of tennis.

Keywords: Tennis, physical education, sports, games, court, ball. European, French

ANOTATSIYA

Ushbu maqolada Tennis o'yinida texnika harakatlarining ahamiyati hamda Tennis o'yinining qonun qoidalari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Tennis, jismoniy tarbiya, sport, o'yin, kort, koptok. Yevropa, fransuz.

INTRODUCTION

Tennis ikki kishi yoki ikki kishilik ikki guruh orasida o'ynaladigan sport o'yinidir. O'yinchilari to'rtli raketka bilan rezina to'pchani raqibining maydoniga urib tushirishlari kerak. XIX asr oxirida Yevropada paydo bo'lgan bu o'yin tezda dunyoga tarqaldi. Millionlar o'yini bo'lmish tennis Olimpiya O'yinlari qatoriga kiritilgan. "Qirollar o'yini" hisoblanadi. Tennisni muntazam o'ynash ko'z uchun doimo foydali hisoblanadi. Shuning uchun Yevropada uni boy va mansabdorlar sevib o'ynashadi. Tennis, launtennis (ing . lawn — o'tloq, maysazor; "tennis" terminining kelib chiqishi to'g'risida bir necha taxmin bor: frans. tenez — mana, ol; ing . tens — o'nlik, chunki o'rta asrlarda tennisga o'xshash o'yinni besh kishidan, jami o'n kishi o'ynagan; ing . tenia — rishta; to'pni tortilgan ipdan oshirib o'ynalgani uchun) — sport turi, movut qoplangan rezina koptok raketka yordamida urilib kortsa. o'ynaladi. Koptokning diametri 6,35—6,67 sm, og'irligi 56,7g . Yog'och, yengil metall yoki plastmassadan har xil o'lchamda tayyorlangan raketkalar og'irligi 255—400 g . O'yin kortning orqa chizig'idan raqibning to'rga yaqin maydonchasiga koptokni xatosiz uzatish bilan boshlanadi. Koptok maydonga tegib sakragandan keyin raqib uni qaytaradi (o'yin davomida xam koptokni ikkinchi sakragandan keyin olishga ruxsat etilmaydi, faqat ikkinchi zarbadan boshlab koptokni kortga tushirmasdan ham qaytarish mumkin). Geymda hisob 15:0,30:0,40:0 va h.k. tarzda yuritiladi, agar 40:40 hisobi — "teng" qayd etilsa, keyingi ochkoni yutgan "ko'p", yutqizgan "kam" bo'ladi. "Ko'p"dan keyin ochkoni yutgan geymni ham yutadi. Setda olti geym (6,0...6:4) yutish lozim, bordiyu hisob 6:5 bo'lsa, o'yin davom ettiriladi. 12 geymdan keyin hisob 7:5 bo'lsa, g'olib aniklanadi. Agar 6:6 hisobi qayd etilsa, "taybreyk" o'ynaladi. "Taybreyk"da g'olib chiqish uchun 7 ochko to'plash zarur, agar hisob 7:6 bo'lib qolsa, o'yin qaysidir tomonning ikki ochko o'zib ketishigacha davom etadi. Erkaklar o'yinida eng ko'p setlar miqdori — 5, ayollarda — 3 ta. Tennis musobaqalari yakkalik, juftlik va aralash (bir erkak va bir ayol) tarzida tashkil qilinadi.

Tennisga o'xshash o'yinlar dastlab Misrning Tinis (Tanis) shahrida paydo bo'lgan degan taxmin ham mavjud. Bu o'yin 13— 14-asrlarda Italiya, Fransiya, Angliyada ommalashdi. Fransiyada rohiblar 5 tadan bo'lib kaftlarida Tennisga o'xshash o'yin o'ynashgan. 16-asrdan boshlab o'yinda dastlabki raketkalar qo'llanildi. Zamonaviy Tennis qoidalarini angliyalik Volter Uingfild ishlab chiqqan (1874). Shu qoidalar asosida "Uimblon" turniri (Angliya) 1877-yildan, AQSH ochiq chempionata 1881-yildan, "Rollan Garros" turniri (Fransiya) 1891-yildan, Avstraliya ochiq chempionata 1905-yildan o'tkazilib kelinadi (hozirgi kunda bu musobaqalar "Ulkan toj" musobakdlari deyiladi). Tennis 1896-yil Olimpiada o'yinlari dasturiga kiritilgan. Amerikalik Duayt Filli Devis tashabbusi bilan 1900-yildan jamoalar o'rtasida norasmiy jahon chempionati hisoblanmish Devis kubogi o'tkaziladi. 1912-yil xalqaro launtennis federatsiyasi (ILTF) ra asos solindi (1977-yilda Xalqaro tennis federatsiyasi — ITF deb o'zgartirildi). 1965-yilda Xalkaro professional tennischilar assotsiatsiyasi (IART) tuzildi, U 1972-yilda Professional tennischilar assotsiatsiyasi (ATR)ga aylantirildi. ATR har yili 4 toifaga bo'lingan 77 ta musobaqa o'tkazadi. 1963-yilda Ayollar tennis assotsiatsiyasi (WTA) tashkil qilindi. Hozirgi kunda WTA 54 ta musobaqa tashkilotchisidir (2004). T. AQSH, Avstraliya, Argentina, Buyuk Britaniya, Germaniya, JAR, Ispaniya, Fransiya kabi davlatlarda yaxshi rivojlangan. Byorn Borg (Shvetsiya), Jon Makinroy (AQSH), Ivan Lendl (Chexiya), Boris Bekker (Germaniya), Pit Samprass (AQSH), Martina Navratilova (AQSH), Shteffi Graf (Germaniya), Martina Xingis (Shveysariya) kabi Tennis ustalarining nomi mashhur. O'zbekistonda Tennisga o'xshash o'yinlar qadimdan o'ynalgan. Xususan, "bir tayoq" xalq o'yinida Tennisga xos jihatlar mavjud. Zamonaviy Tennis O'zbekistonga 20-asrning boshlarida kirib keldi. Mamlakat mikesidagi musobaqalarda V. Pushkarev, Sh. Chebatarev, S. Obidov, R. Yalalova kabi tennischilar muvaffaqiyatli qatnashib, sport ustasi talabini bajarishdi. Respublikamizda Tennis 20-asrning so'ngga o'n yilligidan boshlab keskin rivojlandi. Mustaqillikka erishgan O'zbekistonning deyarli hamma shaharlarida zamonaviy Tennis kortlari bunyod etildi. Toshkent, Farg'ona, Samarkand, Namangan, Andijon sh. laridagi bu sport inshootlarida tennischilar va Tennis muxlislari uchun barcha qulayliklar yaratilgan. 1992-yilda O'zbekiston federatsiyasi tuzildi va o'sha yili ITG' a'zozligiga qabul qilindi. 1994-yildan O'zbekiston Devis kubogi musobaqalariga kushildi, tennischilarimiz Osiyo o'yinlari, qit'a chempionatlari, olimpiada va boshqa xalqaro musobaqalarda ishtirok eta boshladilar. Toshkentda professional tennischilar o'rtasida "Prezident kubogi" xalqaro musobaqasining o'tkazilishi (1994-yildan) O'zbekistonda bu sport turining yuksalish davrini boshlab berdi. Keyinroq bu musobaqa ATR tur doirasiga kiritildi va jahonning eng kuchli tennischilari O'zbekiston poytaxtiga tashrif buyurishdi. 1996-yilda Toshkentda ayollar o'rtasida Chellenjer musobaqalariga asos solindi va u WTA turkumidagi musobaqalar orasidan joy oldi. Viloyat markazlarida ham Fyuchers, Chellenjer musobaqalari o'tkazila boshlandi. 1997-yildan rahbar havaskor tennischilar o'rtasida "Havas" musobaqalarining boshlanishi Tennisning yanada ommalashuvida muxim rol o'ynadi. Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasidatennisni rivojlantirishni qo'llabquvvatlash jamg'armasini tashkil etish to'g'risida" (1997-yil 25 avg .) va "O'zbekiston Respublikasida tennisni yanada rivojlantirish choratadbirlari to'g'risida" gi (1998-yil 11 sent.) karorlari Tennisning taraqqiyotiga qulay shartsharoit yaratdi. 1998-yil 20 martdan "TennisQ" gazetasi chiqarila boshlandi. 2001-yildan Devis kubogi tartibi bo'yicha viloyat jamoalari

o'rtasida O'zbekiston kubogi musobaqalari o'tkazilyapti. Mamlakatning barcha viloyatlarida respublika Tennis federatsiyasining bo'limlari bor. 47 ta Tennis klubi, Tennisga ixtisoslashgan 76 ta bolalar o'smirlar sport maktablari faoliyat ko'rsatyapti. O'zbekistonda 15 mingdan ziyod kishi Tennis bilan shug'ullanadi, ularga 241 murabbiy saboq beradi (2004). I. To'laganova, V. Kutsenko, O. Ogorodov, I. Isroilova, O. Omonmurodova Osiyo o'yinlari, qit'a chempionati, universiada, xalqaro musobaqalarda g'olibsovrindor bo'lishdi. Bu tennischilarning g'alabasida V. Pushkarev, A. Yolxin, F. Sultonbekov, H. Shafikrv kabi murabbiylarning hissasi bor. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Tennis rivojlangan hammabop sport turi hisoblanadi. Dunyoda va O'zbekistonda Tennis bilan shug'ullanuvchilar soni ko'p.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mustafin R., Sultonbekov F., Tennis, T., 1993; Yanchuk V., Yakovenko V., Bolshoy mir bolshogo tennisa, T., 1998; Jumayev K., Mo'minov A., Yunusobod tennis klubi, T., 1999.